

**BEHBUDIYNING IQTISODIY QARASHLARI VA UNING
HOZIRGI KUNDAGI TARBIYAVIY AHAMIYATI**

Mahkamov Ibroyim – i.f.n., dotsent

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Abdurahmanova Zulayho-assistent

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Azimov Azizbek Maxamadali o'g'li -talaba

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

2020 yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alini baland ko'tarib chiqqan alloma va adib Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasini keng nishonlandi.

Umuman, biz jaddidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz me'rosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev

Tayanch so'zlar: ma'naviy-iqtisodiy me'ros, marosimlar, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy tafakkur, jaddidchilik, ilm-ma'rifat, uzluksiz ta'lim, kasb-hunar, innovatsiya, mulkchilik, tabdirkorlik, sarmoya, raqobatbardoshlik, integratsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda yashab ijod etgan jaddidchilik harakatini asoschilaridan bir bo'lgan ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyni asarlarida olg'a surilgan iqtisodiyotga oid g'oyalar va ularning bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati, ya'ni xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, o'z mulkidan samarali foydalanishga bo'lgan

munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan fikrlari zamon bilan bog'lab yoritib berilgan.

O'zbek xalqi juda qadimiy ma'naviy va iqtisodiy merosga ega. Bu meros mamlakatimizning mustaqilligini mustahkamlashga, yoshlarni zamonaviy bilim va iqtisodiy tafakkurga ega bo'lishi hamda xalqimizning iqtidorli millatga aylanishi uchun xizmat qilmoqda.

“Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib, maydonga chiqadigan strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur.[1]

Farzand tarbiyasida kasb-hunarni to'g'ri tanlash va unga yo'naltirish masalasi nafaqat oila, balki jamiyat uchun ham muhim masaladir. Chunki kishi kamolga yetgandan so'ng jamiyat manfaati uchun bor imkoniyatini ishga soluvchi shaxs bo'lishi darkor. Buning uchun muhim shart-sharoitlar bo'lmog'i lozim.

Odamzod paydo bo'libdiki, doimo ilm-hunarga ehtiyoji bor, chunki ilm-hunar insoniyatning barcha ijtimoiy zarurlari yechimi hisoblanadi. Bugungi kunda ilm-hunar egallash har bir yosh avlodning eng ustuvor vazifasi bo'lib kelmoqda. Boisi, yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislargina zamon bilan hamnafas bo'lishi mumkin.

Umuman aytganda, ma'naviyat va ma'rifat masalalari o'tmishdan insoniyatning kamolga yetishi uchun eng muhim omil sifatida qaralgan. Bu borada o'tmishda mamlakatimizda yashab ijod qilgan bir qator olim-fuzalolarimiz fikrlarini o'z asarlarida yozib qoldirishgan. Ayniqsa, ular qatorida Amir Temur, Alisher Navoiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Muhammadxo'ja Behbudiy va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Turkiston jadidchilik harakatining haqiqiy ma'nodagi asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiydir. U yozuvchi, publisist, jamoat arbobi, birinchi o'zbek dramaturgi, pedagog, “usuli savtiya” metodiga asoslangan “usuli jadid” maktablarining Turkistondagi birinchi tashkilotchisidir. Uning nomi nafaqat

Turkiston general gubernatorlariga, hatto Rusiya podshohiga ham tanish bo‘lgan, uning faoliyati Buxoro amirini larzaga solgan. Uning nomi qatag‘on davrlarigacha millat taraqqiyoti, istiqlol timsoli bo‘lib keldi. Behbudiy qatl qilinganining 7 yilligi munosabati bilan atoqli tarixshunos, manbaashunos olim, marhum Laziz Azizzoda (1895-1987) “Maorif va o‘qituvchi” jurnalining 1926 yil, 2-sonida quyidagilarni yozgan edi: “Behbudiyning xizmati fransuzlarning Jan Jak Russolari, ruslarning Lomonosov, Chernishevskiy va Pisaryevlari, Kavkaz turklarining Fathali va Najafbeklari, tatarlarning Marjoniy va Nosiriysi ila birdur... Endi uning ismini abadiy qoldirmoq uchun hech bo‘lmasa, uning nomiga maktablar solmoq, talabalar tarbiyasi uchun sarmoya (fond) tashkil etmoq, bosilmagan asarlarini bostirmoq, tarjimai holini yozdirib, chop ettirmoq, muhim asarlarini to‘plab bosdirmoq vaqti yetgandur. Agar O‘zbekistonda Navoiy va Ulug‘bekdan boshqa uchinchi bir kishiga haykal qo‘yiladurg‘on bo‘lsa, shubhasiz, bu Behbudiyning haykali bo‘lg‘usidir. Uning asarlarini bosdirishda, yaqin moziydagi tarixiy inkishofimizni bilmoq uchun Behbudiy emas, Behbudiyning xizmatlari, zaminlari ham o‘runlari bilan tanishmog‘imizning hozirdagi ham kelgusidagi ahamiyatini esdan chiqarmaslik kerak”.

Drama muallifi e‘tiborni otalar va bolalar muammosi – o‘g‘il tarbiyasida ota-onaning o‘rni masalasiga qaratadi. E‘tibor bering, dramada ota kattagina boy, ammo bu boylik tarbiya ko‘rmagan bolani ham, otani ham fojyega girdobiga tortib ketadi. Oila va maktab tarbiyasi birgalikda, uzviy olib borilgandagina, o‘z oldiga qo‘ygan ulkan vazifani bajara oladi, degan fikr asarni harakatga keltiruvchi kuchdir. Ota tarbiya ko‘rmagan, dunyo voqealaridan butunlay uzilib qolgan, hatto muomala madaniyatidan ham bexabar, uning domla, ziyoli bilan muomalasi Toshmurod (o‘g‘li) ning otasi bilan muomalasiga o‘xshab ketadi, ya‘ni otaning tarbiyasizligi, johilligi o‘g‘lida ham o‘z aksini topgan.

Behbudiy bu voqealarni boy bilan domullo o‘rtasidagi suhbatda ko‘rsatib beradi. Ular suhbatlashib o‘tirgan xonaga boyning o‘g‘li Toshmurod kirib, tomoshaga borish uchun pul so‘raydi va u chiqib ketganidan so‘ng, domullo boyga qarab, uning o‘g‘li katta bo‘lib qolganini aytib, xudodan umr so‘raydi.

Boydan o'g'lining usuli jadid maktabida yoki eski maktabda o'qishini so'raydi. Boy har ikkisiga ham bermasligini va hatto uyda ham o'qitmasligini aytadi. Domullo o'g'lini o'qitishini, hisob-kitob daftarini yuritishni, xalq ilmlarini hurmat qilishini, musulmonchilik yo'l-yo'riqlarini anglatish, xat va savodi yo'q odam hech nimaga yaramasligini boyga uqtirishga urinadi. Boy bo'lsa, bu fikrlarga bepisandlik bilan, meni savodim yo'q, biroq shaharning katta boylaridanman, shuning uchun xalq bizning boyligimizni hurmat qiladi, musulmonlar nari tursin, o'ris va armanlarda izzat qilishini aytadi va o'g'lining ilm olishiga befarqligini bildiradi.

Bunday kayfiyatni boy bilan ziyoli o'rtasidagi suhbatdan ham ko'rish mumkin. Ziyoli boyga zamon o'zgarganligini, bu zamonda ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri, asboblari va axloq hamda obro'yi ham qo'ldan ketishi, dini zaif bo'lishini aytadi. Buning uchun musulmon bolalarini o'qitishga harakat qilmog'i lozimligini ta'kidlaydi. Ularni avvalo, musulmoncha xat-savodini chiqarib, hukumat maktablarida, ya'ni gimnaziya va shahar maktablarida o'qitish, uni tamomlagach, Peterburg va Moskva, hatto boshqa xorijiy mamlakatlar dorilfununlariga ta'lim olmoqqa yuborish lozimligini aytadi. Biroq, boy bu fikrlarga ham loqayd qaraydi. Yoshlikdan pulga o'rgangan farzandning istaklari betayin bo'ladi, nafs har tomonga shohlab ketadi. Oqibatda u ko'cha bezorilariga qo'shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyga boshlab keladi. Boy uyg'onib, ularni sezib qoladi, lekin uni o'ldirib, pulni olib ketadilar. Natijada, o'g'li Toshmurodning tarbiyasiga e'tiborsizlik tufayli fojeali o'lim topadi. Jaholat va nodonlik otaning ham bolaning ham boshiga yetadi.

Behbudiy bu sa'y-harakatlari ortida yoshlarni ilm olishga undaydi, chunki ilmsizlik oqibatini "Bu ketishni oxiri yomondur, o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Turkiston mevasi, donasi, toshi, tuprog'i eski nimarsalari Ovro'pa bozoriga ketar. Muni Ovro'pa dollorlari kelib oz bahoga olib ketar, mehnatni biz qilurmiz, foydani ular ko'rar. O'z nimarsalarimizni Ovro'pa bozoriga eltib, yaxshi bahoga sotaturg'on bizda biror dam yo'q. Azbaski, Ovro'pa ila savdo qiladurg'on kishi avval o'n sana zamona ilmini o'qimog'i lozim", - degan fikrlarni bildiradi. [3]

Behbudiy “Padarkush” asari orqali ilm va hunar o‘rganish inson uchun eng zarur vazifalardan biri hisoblanishini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, har qanday narsaning mohiyatini anglash, jahondagi voqealarning yaxshi-yomon tomonlarini bilish, odamlarning qadr-qimmatini to‘g‘ri tushunish, oilaning farovon yashashini to‘g‘ri tashkil etish, qisqa qilib aytganda har tomonlama mukammal bo‘lish uchun ilm va hunar o‘rganish zaruriy ehtiyojlardan biri ekanligini uqtiradi. Uning orzulari bugungi kunda ro‘yobga chiqmoqda. Mamlakatimizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va “Yoshlar kelajagimiz” dasturlarining o‘ziga xos jihati shundaki, u yaxlit samarali tizimga asos bo‘lib, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Uzluksiz ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish bu yaxlit jarayonning uzviy tarkibiy qismlaridir. Mazkur dasturlar mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining barcha jabhalari uchun yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash, shuningdek ta’lim tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirib borish vazifasini muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilmoqda.

Ayni vaqtda mamlakatimizda 100 dan ortiq oliy ta’lim muassasalari, 1000 ga yaqin kasb-hunar kollejlari va 141 ta akademik liseylar, 4 ta Prezident maktablari faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bunday o‘quv yurtlari mamlakatimizning eng chekka hududlarida ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Bugungi kunga kelib, mazkur o‘quv yurtlarida bir necha milliondan ortiq o‘g‘il-qizlarimiz bilim olmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O‘zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatida qanday o‘rin egallashi ham, bularning barchasi, avvalombor, yangi avlod, unib-o‘sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishishiga bog‘liqdir”, - degan fikrlari M.Behbudiyning yuqoridagi orzulari bilan hamohangdir.

Bu asarning serqirraligi shundaki, mazkur asar nafaqat ma'naviy tarbiyalovchi, balki iqtisodiy tomondan ham saboq beradi. Uning negizida ilmsizlik isrofni keltirib chiqarishi, isrof esa sarmoyaning “dushmani” degan g'oya yotadi. Sarmoya, tadbirkorlik, ilmlilik yo'q joyda albatta halokat yoqasiga olib keluvchi fojyealar yuz berishi alohida ta'kidlangan. Masalan, ziyoli va mullaning boyga qilgan da'vatlari ilm olish, boylikni behuda sarflamaslik ham diniy, ham dunyoviy tarafdin kishilik jamiyatining vazifasi ekanligi aytilgan. Asarda ziyolining “Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo'ldan ketgandek, ahloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur”, - degan fikrlari so'zimizning isboti bo'la oladi. Sodda qilib aytadigan bo'lsak, bu kichkinagina manzaraga muallif katta mazmun sig'dira olgan. Uzundan-uzun dialoglarga aytilishi mumkin bo'lgan ma'noni dramaturg bir necha soniyali vaqtda bir kichik detaldayoq ochib bera olgan.

Behbudiy qarashlarida, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilib kelayotgan eskicha urf-odatlarini, aqidalarni isloh qilish takliflari islom ahloqini mustahkamlash g'oyalari bilan chirmashib ketadi.

M.Behbudiyning 1914 yil “Oyina” jurnalida chop etilgan “Zo'raki boy”, “Yoshlarga murojaat”, “Bizni kemiruvchi illatlar”, “Ehtiyoji millat” kabi maqolalarida odamlar o'z boyliklarini to'y va azalar uchun, soxta obro' topish uchun sarflayotganliklarini tanqid ostiga oladi. Odamlar o'z yeridan va undagi mevalardan topgan daromadini shariat va tirikchilik yo'lida sarflab, isrof etmasa, uning boyligi ko'payib boradi, deydi. Ammo, dabdabali to'y qilsa, o'lim ko'mishda soxta obro'ga intilsa o'z yeridan, mol-mulkidin ajralib qolishini aytadi. Jumladan, “Bizni kemiruvchi illatlar” deb nomlangan maqolasida quyidagilarni ta'kidlaydi: Bizni qilaturgon aqlsizligimizni qaysi millat qilur? Nikoh, xatna, bu ikki balo shundog' qattiq illatki, o'lmaguncha qutilib bo'lmaydur. Shaharlarda o'rtahol, ya'ni o'turarg'a xona va bog'i bor bir kishi nikoh uchun ikki ming so'm sarf etar va o'g'ul xatnasi uchun hech bo'lmaganda ming so'm. Har bir benovo kishi bu mavridlarga 200 so'mdan 1000 so'mgacha

sarf etar. Boy va zo‘raki boylar esa besh ming, o‘n minglab sarf etar. Oxiri nima bo‘lur? Nima bo‘lur deysiz? Ota-bobosidan qolgan mulk va vatanni o‘z ixtiyori ilan zo‘raki boyni o‘zi o‘lgandan so‘ngra bir yahudiy yo bir armani ajnabiyga sotib, to‘y va ta‘ziya qarzini berar.[3]

M.Behbudiy bu fikrlari bilan odamlarni ilm-hunarli bo‘lishga, doimo harakat bilan yashashga, tadbirkorlik, tejamkorlik xislatlarini egallashga undaydi. Shuningdek, iqtisodiyotning muhim jihati bo‘lgan turli masalalarga ham alohida e‘tibor beradi. U mulkni to‘g‘ri tasarruf etish, undan unumli foydalanish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik kerakligini uqtiradi. Ana shunda odamlar to‘q va farovon yashashlari mumkinligini ta‘kidlaydi.

M.Behbudiy orzu-havas va soxta obro‘ topish uchun odamlarning mol-mulklarini, ekin yerlarini hovli-joylarini armani va yahudiylarga sotib yuborib, o‘zlari qiyin ahvolga tushib qolishlarini qoralaydi. Buni bir mahalla misolida ko‘rsatib beradi. “Biz bir tanob yerni 200 so‘mga sotib to‘y qilmoqchi bo‘lsak, “yerni ko‘p pulg‘a urdim” deb majnunona shodlanurmiz. Insonni bu qadar ahmoqligi ajabdur. Bizg‘a lozimki, to‘y va ta‘ziyalarni kichik qilib va holimizcha harakatda bo‘lib, kelar zamonamizni o‘ylayluk. Valloh, xoru zoru munqariz bo‘lmoq ertag‘a oftobni chiqishidek muqarrardir. [3]

M. Behbudiy tomonidan o‘z vaqtida tanqid qilingan to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlar o‘tkazishdagi salbiy holatlar bugungi kunda ham uchrab turibdi. So‘nggi yillarda xalqimizning uzoq yillik qadriyatlarini va an‘analarini o‘zida aks ettirgan to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlar o‘tkazishda shuhratparastlik, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, boshqalarning ijtimoiy ahvolini inobatga olmaslik, isrofgarchilik, xalqimizning urf-odatlarini va an‘analarini mensimaslik kabi illatlar ko‘zga tashlanmoqda.

O‘rganishlar tahlili, shuningdek aholi bilan bevosita o‘tkazilgan muloqotlar, ushbu sohada bir qator jiddiy muammo va kamchiliklar hamon saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, ayrim fuqarolar dabdabali to‘y marosimlari va ularni o‘tkazishga sarflanadigan katta xarajatlar oqibatida qarzga botmoqda va undan qutulish maqsadida chet elga ishlash uchun chiqib ketmoqda

muhojirlikda og‘ir sharoitda ishlash, hattoki hayotdan bevaqt o‘tish holatlari ham kuzatilmoqda yoki umr bo‘yi mehnat qilib topgan mol-mulkdan ajralib qolish holatlari ro‘y bermoqda.

Shuningdek, yuqoridagi salbiy holatlarning tobora avj olishi ming-minglab oilalarning nafaqat ijtimoiy ahvoliga, balki butun hayotiga, qolaversa, jamiyatimizda qaror topgan ma‘naviy muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mazkur holatlarga chek qo‘yish, oilalarda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni barqarorlashtirish, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta‘minlash, aholi, ayniqsa, yoshlarda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish maqsadida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlarni qat‘iy tartibga solishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Shu maqsadda hukumatimiz tomonidan o‘tkaziladigan marosimlarga oid bir qator me‘yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bunga amal qilish mamlakatimiz aholisining ma‘naviy ahloqiy dunyoqarashiga bevosita bog‘liqdir.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, M.Behbudiy o‘z asarlarida insonlarni o‘z mulkini isrof qilmaslikka tejamkor bo‘lishga va tadbirkorlik asosida farovon yashashga da‘vat qiladi. Uning bu chaqiriqlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Chunki, bozor iqtisodiyoti insonlarni ishbilarmon, tadbirkor, tejamkorlik bilan ish yuritishlarini talab etadi. Buning uchun kishilar ilimli, xususan, iqtisod ilmini puxta bilishlari va yuqori malakali kasb egalari bo‘lishlari lozim.

Bugungi kunda M Bexbudiyning orzulari va o‘gitlari ruyobga chiqmoqda. Xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizni tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab quvvatlash, ularga o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘yish uchun katta imtiyozlar berilmoqda. Prezdyentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek “Biz yoshlarimizda tadbirkorlik tashabbusini rivojlantira olsak, ularga mablag‘dan to‘g‘ri foydalarnishni o‘rgatsak, nafaqat iqtisodiy, balki ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal etgan bo‘lamiz” [2]

Xalqi, vatani uchun fidoyilarcha yashagan, mehnat qilgan Behbudiyning umri, hayoti ham mohiyat-e‘tibori bilan shu xalq, shu vatan uchun fido bo‘ldi. U 1919 yilning bahorida Buxoro amirining Shahrisabzdagi kishilari tomonidan

hibsga olinadi va sho‘roning ayg‘oqchisi, “sho‘roga sotilgan” degan ayblar bilan Qarshi shahrida qatl etiladi. “Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz”, - degan edi Behbudiy vasiyatnomasida.

Bundan ko‘rish mumkinki, jamiki ilmlarni, shu jumladan iqtisodiy ilmlarni o‘rganish va uni hayotga tadbiiq qilib, yosh avlodga o‘rgatish har birimizning vazifamizdir. Bu borada Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasidagi quyidagi fikrlarni qayd etish joiz: “Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a‘zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilma‘rifai, yuksak ma‘naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, Eng katta boylik-bu aql zakovat va ilm. Eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir”[1]

G‘arb mamalakatlaridan farqli o‘laroq, bizning yurtimizda nafaqat ta‘limga balki tarbiyaga ham katta e‘tibor beriladi va bunga oila, mahalla, ta‘lim maskanlari ham mas‘uldir. Farzand tarbiyasi yo‘lida tashlangan har bir to‘g‘ri qadam uning kelajakdagi o‘z o‘rnini topib ketishi uchun mustahkam asos bo‘ladi. Shunday ekan, farzandlarimiz kelajagiga alohida e‘tiborli bo‘lishimiz kerak. Oliy ma‘lumot olaman, o‘z ustimda ishlab ilmli bo‘laman degan yuragida o‘ti bor jo‘shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratib berilayotganligini aloxida ta‘kidlash lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiy merosini qanchalik chuqurroq o‘rgansak va bu bebaho merosdan xalqimizni, xususan yoshlarimizni ko‘proq bahramand qilsak, bu oltin meros bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan buyuk maqsadlarga erishishimizda ko‘makchi bo‘ladi. Shuningdek, xalqimiz hayoti, farovonligining yuksalishini hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni samarali davom ettirishni, milliy ma‘naviyatimizni yuksaltirishni ta‘minlovchi vositaga ega bo‘lamiz. Bu vosita yoshlarimizni, davlat va oila oldida turgan o‘z

mas'uliyatlarini chuqur anglab yetuvchi insoniy fazilatlarga ega bo'lgan komil shaxs etib tarbiyalashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/4057> 29.12.2020
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz o'g'il-qizlarini yoshlar kuni bilan tabrik nutqi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/5303> 30.06.2022.
3. "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. PQ-92-son. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/5831865> 19.01.2022 yil.
4. "Yoshlar bilan ishlashda mutlaqo yangi tizim joriy qilinadi!" Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi materiallari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/6145>. 11.04.2023
5. Maxmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T., "Ma'naviyat" 1997 yil
5. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. T., "Ma'naviyat" 2003 yil.
6. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. T., "Ma'naviyat" 2003 yil
7. Shahobov, K. (2023, June). Theoretical basis of the cluster approach in ensuring the socio-economic development of society. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
8. Muhamadovich, S. H. (2023). The Importance of a Cluster Approach in the Sustainable Development of Entrepreneurial Favoritism. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(10), 17-22.